

EZGU FIKR, EZGU SO'Z, EZGU AMAL!

# ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL



URGANCH  
DAVLAT  
UNIVERSITETI

3

2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

## **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**3.2023**

**научно-теоретический, методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2023**

**“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal**

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

**TAHRIR HAY’ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ravshanbek**, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),  
**ABDULLAYEV O‘tkir**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**ATADJANOV Ilxam**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**ATAYEV Shokir**, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DAVLETOV Sanjarbek**, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),  
**DO‘SCHONOV Tangribergan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ERMETOVA Jamila**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),  
**JUMANAZAROV Doniyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYAZOV Maqsud**, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Otaboy**, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OTAMURODOV Sa’dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**PRIMOV Azamat**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RUZMETOV Surojbek**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**RO‘ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),  
**SALAYEV San’atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SALAYEVA Muxabbat Soburovna**, pedagogika fanlari doktori (UrDU),  
**SATIPOV G‘oipnazar**, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o‘rmosari, (UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),  
**O‘ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori (UrDU),  
**O‘ROZBOYEV G‘ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**G‘AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2023 3 (189)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti•Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan•GUVOHNOMA № 1131.

yotning falsafiy-axloqiy tomonlarini, mohiyatini, mag‘zini, ma’no-mazmunini ham ifodalaydi. Shaxsnинг estetik tafakkuri qotib qolgan va ma’lum ma’naviy meros bilan chegaralangan emas. Ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar, barcha islohotlar va ularning natijalari shaxsnинг axloqiy qiyofalari, estetik ongi va madaniyatida ham o‘zgarish yasaydi. Badiiy-estetik jarayonlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni idrok etmoq uchun shaxs madaniyatni, ma’naviyatni, estetik tafakkuri va badiiy didida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishi kerak.

Jamiyatdagi zamonaviy islohotlar negizida madaniy hayotda ham juda katta islohotlar amalga oshirildi. Buning natijasida milliy qadriyatlар qayta uyg‘ondi, jonlandi va o‘zining butun mavjud bo‘y-bastini ko‘rsata bildi. Jamiyatda shaxsnи yuksak ma’naviyatli komil inson, o‘z oldiga qo‘yan maqsad va vazifalarini har tomonlama uyg‘unlikda, amalga oshirishga, intelektual yetuk hamda milliy mentaliteti taraqqiy etgan qilib tarbiyalashga qaratildi. Bularning barchasi yurtimizda shaxsnи tabiat go‘zalligi, jamiyat ehtiyoji va millat orzu umidlarini estetik idrok etishga da’vat etib boraveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Таракқиётга – факат машаққатли ва жасоратли меҳнат орқали эришилади. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2022 йил 21 декабрь.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T., 4-jild, “O‘zbekiston”, 2020.
4. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. “Шарқ”, Тошкент, 1998.

**Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD); e-mail:toshmetovtuxtasin@gmail.com)**

#### **GLOBALASHUV DAVRIDA BARKAMOL YOSHLARNI RIVOJLANTIRISHNING G‘OYAVIY MEXANIZMLARI**

*Annotatsiya. Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazish, har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash hozirda dolzarb vazifalaridan biriga aylanmog‘ i lozim. Shundagina biz istiqbolda ma’naviy barkamol insonni, sog ‘lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.*

*Аннотация. Объединение народа во имя великого будущего и славных целей, воспитания качественного, гармоничного поколения, всесторонне зрелого человека должны стать одной из актуальных задач настоящего времени. Только тогда мы сможем в перспективе добиться воспитания духовно совершенного человека, здорового поколения. Одной из приоритетных задач нашего общества является воспитание гармоничного поколения.*

*Annotation. The unification of the people towards a great future and glorious goals, the upbringing of a high-quality, harmonious generation, the upbringing of a fully mature person should become one of the urgent tasks at the present time. Only then will we be able to bring up a spiritually perfect person, a healthy generation in the future. One of the priorities of our society is the upbringing of a harmonious generation.*

*Kalit so‘zları: jamiyat, barkamol, komil inson, tarbiya, ma’naviyat, madaniyat, mafkura, global, immunitet, strategiya, axborot, texnologiya, ma’rifat, axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik, qadriyat, madaniy meros, urf-odat, an’ana, targ ‘ibot, transformatsiya, hushyorlik.*

*Ключевые слова: общество, гармония, совершенный человек, воспитание, духовность, культура, идеология, глобальность, иммунитет, стратегия, информация, технологии, просвещение, мораль, патриотизм, гуманизм, ценность, культурное наследие, традиция, традиция, пропаганда, преобразование, бдительность.*

*Key words: society, harmony, perfect man, upbringing, spirituality, culture, ideology, globality, immunity, strategy, information, technology, education, morality, patriotism, humanism, value, cultural heritage, tradition, propaganda, transformation, vigilance.*

Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida eng katta masshtabdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridan biri, shubhasiz, globalashuv jarayonlari deyishimiz mumkin. Globalashuv jarayonlari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy sohalari bilan bir qatorda, ijtimoiy-ma’naviy jahbalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda, ijtimoiy ongning turli ko‘rinishlari yangicha mohiyat kasb etib, mutlaqo boshqacha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar, jadallahuv jarayonlari bir so‘z bilan “globalashuv” deb nomlanmoqda.

Globallashuv haqida olimlarimiz tomonidan turli qarashlar bayon etilgan. Xususan, professor S. Otamurodov, “globallashuv” jarayon bo‘lib, ayni paytda, uning “mavhum” tushuncha ekanligi, fan, texnika, texnologiyaning jadal ommalashib ketishi bilan moddiy borliqqa aylanib boradi, deb xulosa qiladi. Olimning fikricha, bu jarayoni milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning susayib borishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi”, deb ta’kidlaydi.<sup>1</sup> Shuningdek, “globallashuv, bir tomondan, insoniyat intellektual salohiyati taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lishi bilan ijobiy jarayon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy qilgan millatlarning yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarga bog‘lanib qolishiga olib kela-digan salbiy jarayondir”, deb globallashuv tushunchasiga ko‘p qirrali jarayon sifatida tavsif beradi.<sup>2</sup>

Bizning fikrimizcha, S.Otamurodovning qarashlarida globallashuv natijasida milliy mentalitetimizdagи akseologik va gnoseologik tafakkur tarzini turli salbiy ta’sirlardan saqlash davrimizning muhim mu-ammolardan biriga aylanayotganligiga nisbatan ishorani ko‘rish mumkin.

Shuni aytib o‘tish zarurki, global o‘zgarishlar ma’naviyatga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy yoki ma’naviyat sohasidagi siyosiy qarorlar ham ilmiy asosga ega bo‘lsagina, muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutadigan bo‘lsak, mavjud mamlakatlar yoki muayyan mamlakat miçqosidagi masalalar ham olimlarimiz, siyosatchilarimizga muammolarga nisbatan globallashuv nuqtayi nazardan qarab xulosa chiqarish kerakligini eslatadi. Mamlakatimizning jahon geosiyosiy maydonida olib borayotgan siyosati yanada muvaffaqiyatliroq bo‘lishi globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini atroflicha tadqiq va tahlil qilishga bog‘liq. Aynan shu jarayonni tahlil qilish orqali siyosatchilar eng to‘g‘ri yo‘l tanlashi va qarorlar qabul qilishi mumkinligi oy-dinlashmoqda. Binobarin, globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, milliy va mafkuraviy g‘o-yasi, ma’naviyati, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi bilan sodir bo‘ladigan hodisadir.

Aytish kerakki, dunyoda yoshlar tarbiyasidek muhim va murakkab muammo bo‘lmasa kerak. Ay-niqsa, hozirgi mustaqillik sharoitida “barkamol avlod”ni tarbiyalash masalasi kelajak taqdirimiz bilan bog‘liq masaladir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha fikr bildiradi: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiysi bilan bog‘liq”, deb ta’kidlaydi.<sup>3</sup> Darhaqiqat, tarbiya inson ongi mahsulidir. Shuning uchun ham ongini o‘zgartirmasdan turib, yangi jamiyat barpo etish va oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimiz juda murakkab kechadi. Shu bois yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlар ruhida tarbiyalash yangi davlatchiligidimizning asosi hisoblanib, ular ongidagi transformatsiyalashuv jarayonlarini ta’minlab boradi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotni erkinlashtirish jarayonlari milliy ma’naviyat, urf-odat, ta’lim-tarbiya va an’analarga bo‘lgan munosabat va yondashuvlarni taqozo etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida inson kamolotiga ko‘mak beradigan urf-odat va an’analarni yoshlar ongiga singdirishni taqozo etadi. Bu masalalar ham yoshlarimiz diqqat markazida bo‘lishi zarur, chunki bugungi yoshlarimiz ertangi oilaning asoschilaridir.

Ma’lumki, ma’naviy tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Oila mustahkam, tinch va farovon bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Bu borada, ma’naviy va ruhiy muhitning sog‘lomligiga ham, mamlakatimizda oilani mustahkamlashga ham alohida e’tibor berilmoxda. Ayni paytda, insonni ulug‘-lash, uning yashash huquqini kafolatlash kabi ezgu ishlar va niyatlar amalda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bugun hammamizga ayondir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik asosida amalga oshiradi” deb belgilangan.<sup>4</sup> Ulug‘ bobomiz Abu Nasr Forobi: “Agar inson ezguilikka intilib yashasa, uning umri quvonchli va go‘zal kechadi, go‘zal hayot esa xalq nazarida ham, xudo nazarida ham yuksakdir”, degan edi.<sup>5</sup> Aziz, mu’tabar, ozod va obod yurtimizda yangi davlatchilikka poy-devor qo‘yilayotgan ilk kunlardanoq davlatimiz va hukumatimiz ana shunday hikmatlarga alohida e’tibor bilan qarab kelmoqda. Shu boisdan bizda islohotlar xalq, ruhiyati, uning ma’naviy ehtiyojlari, kundalik turmush tarzi talabalaridan kelib chiqib, amalga oshirilmoxda. Bu esa xalq bilan hokimiyat, fuqaro bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, xalq o‘z taqdirini, farzandlari istiqbolini davlat istiqboli bilan uyg‘un holda ko‘rmoqda. Davlat siyosati-

<sup>1</sup> Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2018, 70-bet.

<sup>2</sup> Shu manba. 73-bet.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 257-bet.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 7-bet.

<sup>5</sup> Abu Nasr Forobi. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Toshkent, “Yozuvchi”, 2001, 32-bet.

mizning juda katta ma’naviy qudrati mana shundadir. Xuddi shunday mas’uliyatli davrlarda iqtisodiy islohotlarga ma’naviy tus bermasdan maqsadga erishish mushkuldir.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillardanoq boy madaniyatimizni tiklash va uni rivojlantirish, ma’naviyatni yanada yuksaltirish, uni zamон talablariga javob bera oladigan jahon andozalari darajasiga ko’tarish davr talabi bo’lib qoldi. Zero, kelajak avlodni ma’naviy-axloqiy barkamol qilib tarbiyalash o’ta muhim vazifalardandir. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolardan o’zlikni chuqur anglashni va mas’uliyatli bo’lishni taqozo etadi. Bugun ana shu ish ma’naviyatning eng asosiy qon tomirini tashkil etmoqda. Ma’naviy barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosidir. Shunday ekan, bizning e’tiborimiz markazida ham barkamol insonni tarbiyalash masalasi muhim vazifalardan biridir.

Nazarimizda, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasini paysalga solish yoki bunga panja ortidan qarash, buni qandaydir mavhum, yoki o’z-o’zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tu-shunish va shunday baholash mantiqsizlikdir.

Zero, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagи loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganimda, desak, bu ham ayni haqiqat bo’ladi”, deb fikr bildirgan.<sup>1</sup> Haqiqatan ham, yuksak ma’naviyatli barkamol avlod tarbiyasi umr davomida oladigan bilim va tajriba, shakllanadigan aql-idrok, axloqiy fazilatlarining bir-birini to’ldirib boradigan bir necha bosqichdan iborat tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Zero, loqaydlik va beparvolik barkamol avlod tarbiyasiga ta’sir ko’rsatuvchi salbiy illatlardan birlidir.

Yuqoridagi tahliliy fikrlardan kelib chiqib shuni aytish kerakki, ma’naviy yangilanish bu ma’naviyatning tarixan shakllangan milliy ma’naviy qadriyatlar va globallashuv natijasida tarqalayotgan ma’naviyat asosida dialektik taraqqiyotini anglatuvchi obyektiv jarayon bo’lib, u globallashuv imkoniyatlaridan foydalanish, unga moslashish va salbiy jihatlariga qarshi kurashish hisobiga ma’naviyatni yemirilishidan saqlaydi va jamiyatda ma’naviy barqarorlikni shakllantiradi.

Milliy va global ma’naviyatni quyidagicha tavsiflash mumkin:

–global ma’naviyat uchun tarixiy xotira, avlodlar ma’naviy merosi, an’analar, milliy qadriyatlar emas, iqtisodiy taraqqiyot, investitsiyalar, texnologik va ilmiy qadriyatlar muhim, globallashuvning iqtisodiy potensiali va jadal sur’atlariga milliy ma’naviyat mos kelmaydi;

–milliy va global ma’naviyat imkoniyatlari nuqtayi nazaridan farq qiladi. Milliy ma’naviyatning o’ziga xosligi uni global ma’naviyatning ulkan axborot makoniga kirishini murakkablashtiradi;

–global ma’naviyat iqtisodiy va ilmiy-texnologik asosga hamda agressiv mexanizmga ega, milliy ma’naviyat milliy qadriyatlarga va tarixiy evolutsion mexanizmga ega;

–milliy ma’naviyatga nisbatan konservativlik (din), izchillik va barqarorlik xos bo’lib, u an’anaviy tartib-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Global ma’naviyatga kuchli dinamika, o’zgaruvchanlik, o’ta tolerantlik va gedonistik xususiyatlar xos. U shaxsdan mobillikni talab etadi;

–milliy va global ma’naviyat turlicha funksiyalarni bajaradi: birinchisi, subyektlarni iqtisodiy va ilmiy-texnologik asosda; ikkinchisi, milliy ma’naviy qadriyatlar asosida birlashtiradi. Ma’naviyatning dinamikasi va mohiyati turlicha bo’lgan ikkala shakli ham insonning o’sib borayotgan moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan;

–milliy ma’naviyat qisman yopiq, barqaror tizimga ega, global ma’naviyat ochiq, sinergetik va integratsion tizimga ega bo’lib, u turli-tumanlik asosidagi bir xillikdan tashkil topgan.

Zero, A.Gorelovning fikricha, “Ma’naviy evolutsiya jannatga chaqiradi. Ammo, uning mazmunini almashtirish esa do’zaxga olib keladi”.<sup>2</sup> Jahonda barcha xalqlar singari Markaziy Osiyo xalqlari ham o’zing ko’hma boy madaniy merosi, yuksak ma’naviyati, rang-barang urf-odat va an’analari bilan alohi-da ajralib turadi. Yaqin o’tmishimizga nazar solsak, xalqimizni o’z ma’naviyati va madaniyatidan mosuvo qilib, xotirasiz manqurtlarga aylantirish so’nggi qariyb bir yarim asr mobaynida chorizm va bolshevizm mustamlakachilarining bosh siyosatiga aylandi.

Shuni aytib o’tish zarurki, mustaqilligimiz tufayli bularning barchasiga barham berildi, ma’naviy hayotimizda uyg’onish yuz berdi, buyuk bobolarimizning o’lmas merosi bo’lmish asriy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va ular xalqimiz, vatandoshlarimiz ma’naviy dunyosini yanada boyitib, mustaqilligimizni mustahkamlashga xizmat qilayotir. Xalqimizning ko’p ming yillik tajribasidan shu narsa ma’lumki, dav-

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O’zbekiston”, 2021, 299-bet.

<sup>2</sup> Горелов А.А. Эволюция культуры и экология Москва, 2002, с. 184.

latning rivojlanishi va har bir jihatdan ravnaq topishi uchun ana shu davlat yoshlari ruhan pok, irodasi bavuvvat, iymoni butun bo‘lmog‘i, Vatan, xalq manfaatlarini o‘z manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘ra bilmog‘i, qalbida o‘z xalqining o‘lmas qadriyatlariga chuqrur hurmat-ehtirom hislarini yarata olmog‘i lozim.

Aslida, barkamol shaxs komil inson mohiyati birday tushunchalardir. Yoshlarni to‘g‘rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo‘yingki, yuksak axloqlilikka yo‘llash bevosita bu tushunchalarining mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi iymoni, e’tiqodi va axloqiy fazilatları – qo‘yingchi, ma’naviyati kuchli, milliy mas’uliyat to‘yg‘usi qalbida chuqrur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolarga ega mam-lakatgina mustaqil va barqaror rivojlnana oladi. Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayangan-dagina yaratiladi, qad ko‘taradi. Boshqacha aytganda, ma’naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash muhim va dol-zarb masala. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Sharqona odob-axloq va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan yoshlari yuksak ma’naviyatli, ya’ni ma’naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma’naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevo-sita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma’naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o‘ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni, aslo, istamaydilar.

Shunday ekan, ma’naviy barkamol insonlar hech zamonda shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi, ba’zan uyuştirilgan tuh-mat-u fitnalar uning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma’-naviy barkamol inson ma’naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, rivojlantiradi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma’naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o‘z xalqini sevish, Vatanni qadr-lash, ajdodlaridan faxrlanish kabi oliyanob fazilatları bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a’zolari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla-ko‘yi, qishloq-doshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg‘urish, tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo‘lganligi singari, o‘zi ham ularga kerakli bo‘lishga intilishi, odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo‘lib qolgan madaniy merosni qadr-lash, milliy qadriyatlarini e’zozlash va ularga sodiq bo‘lib qolish, vatanparvarlik, xalqparvarlik, inson-par-varlik tuyg‘ularining barqaror bo‘lishi, o‘zaro muomala-munosabatda o‘rnak bo‘lishga moyillik, bi-rov-ning og‘irini yengil qilishni odat qilish, umumxalq ma’qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qili-ginan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko‘rsatish, Vatanni himoya qili-sh, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan yashash, diyonat va adolat, mehr-shaf-qat va ezgulikni himoya qilish, va’daga vafoli bo‘lish shu kabi boshqa fazilat va hislatlar ham kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, har qanday davlatning kelajagi ma’naviy barkamol yoshlari qo‘lida bo‘lganligi bois himoyalanish chorasi ham, avvalo, yosh avlod ongini milliylik ruhida tarbiya-lashdan boshlash zarur. Milliy qadryatlarimiz yoshlarni ongiga singdirish orqaliy ularda ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Bizning milliy qadryatlarimiz urf-odat, an‘analar va marosim us-tunlariga qurilgan bino kabitdir. Umumbashariy ma’naviyat hamisha milliy ma’naviyatimiz negizida shakllanib, har safar milliy ma’naviyatimizdan milliy qadryatlarimiz oziqlanib borajak.

### **Ravshanova Gulchera Maxamatovna (Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi) GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA TA’LIMNING O’RNI**

**Annotatsiya.** Maqolada axborot xurujlari shaxsga muayyan tashkilot va davlatga yo‘naltirilgan ta’sir bo‘lib, asl maqsadi normal ta’sir bo‘lishini nazarda tutgan siyosiy-ijtimoiy guruhlarning g‘arazli niyatlaridan kelib chiqadi, shu bois xayfsizlik choralarini ko‘rish ham turli sohalarda va turli jabhalarda amalga oshirilmoqda. Yoshlarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish, milliy birlik, faxr va iftixor, birdamlik va hamkorlik tuyg‘ulari, turli xalqlarga bo‘lgan hurmat hissini tarbiyalash-ga undash maktab kutubxonasining muhim vazifalaridan biri hisoblanishi tahlil etilgan.

**Аннотация.** В статье говорится о том, что информационные атаки направлены на человека, конкретную организацию и государство. Их реальная цель проистекает из злонамеренных намерений различных негативных политических и социальных групп. Меры безопасности осуществляются в разных районах и на разных фронтах. Анализируется, что одной из важных задач

## INDEX 1072



ISSN 2010-6246

9 772010 624002